XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 26 - dekabr VI-93-127-7-93-K/23 Bulung‘ur tuman hokimligi

Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-201-7-93-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi 2023-yil 28-martdagi PF-45 va 2023-yil 17-noyabrdagi PF-196-sonli Farmonlari ijrosini ta’minlash va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 31-iyuldagi 02-876m-sonli xati va bu boradagi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 22-avgustdagi 1780 m-sonli xati hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2023-yil 19-dekabrdagi 01/32/352-sonli xulosalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-201-7-93-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-201-7-93-K/22-sonli qarorining 1-ilovasiga

muvofiq:

xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-201-7-93-K/22-sonli qarorining 2-ilovasiga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli qaroriga asosan tuman (shahar) hokimliklariga o‘z hududlaridagi avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalarini o‘rnatish huquqi berilishi munosabati bilan mazkur texnika vositalar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun undirilgan jarima summasining 30 foizi 2023-yilda tuman mahalliy budjetiga qoldirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi VI-75-201-7-93-K/22-sonli Kengash qaroriga kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib tuman mahalliy budjetiga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Narziyev) tuman mahalliy budjetining 2023-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Namozov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Ibragimov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Astonov**

Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman
Kengashining
2023-yil 26-dekabrdagi
VI-93-127-7-93-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-201-7-93-K/22-sonli qarorining 1-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

Bulung‘ur tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI DAROMADLAR		**141 369 300**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	40 558 000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 873 800
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 256 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 632 000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 725 000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 481 500
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	850 000
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 038 000
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	17 158 000
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	13 943 000
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	9 434 000
12	Yig‘imlar	3 367 000
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	359 000
14	Alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo	12 822 000
15	Mobil aloqa xizmati	5 500 000
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	13 372 000

Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman
Kengashining
2023-yil 26-dekabrdagi
VI-93-127-7-93-K/23-son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-201-7-93-K/22-sonli qarorining 2-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

Bulung‘ur tumanining 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

T/R	Ko‘rsatkichlar nomi	Xarajat summasi
JAMI XARAJATLAR		**283 020 386**
1	Xalq ta’limi bo‘limi	15 167 388
2	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	36 659 145
3	Sog‘liqni saqlash sohasi	83 658 869
4	Madaniyat bo‘limi	5 425 880
5	Bolalar o‘smirlar sport maktabi	3 101 358
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 527 208
7	Irrigatsiya tizimlari bo‘limi	2 173 600
8	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	2 241 709
9	Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi	3 940 838
10	Tuman moliya bo‘limi	2 133 879
11	Tuman hokimligi	115 382 556
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi muassasalar	563 032
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	223 441

14	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi	4 870 723
15	Oila va xotin qizlar bo‘limi	3 365 777
16	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	1 584 983